



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-avgust oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 151,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,8 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 13,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 58,7 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 64,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 0,8 % ga kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,6 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,014 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-avgust

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so‘m

Yanvar-avgust

FHI,% da



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 737,7 mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,3 %ini tashkil etdi.

2021- yil
Yanvar-avgust


96,0 %

2022- yil
Yanvar-avgust

96,3 %

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,11 %ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,18 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 42,5 %ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 47,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 3,5 % (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 5,9 %) va quyi texnologiyalisi – 50,2 % (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 42,7 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 45,1 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,4 % (2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,7 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 169,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,0 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,8 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip





Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2022- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 39 488,1 tonna (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 15,7 %ga oshgan), paxta chigiti 74 585,8 tonna (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 20,8 % ga oshgan), 20 082,6 tonna paxtadan yigirilgan ip (1,8 % oshgan), 46 622 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (24,2 % oshgan), 12 168 dona maxsus yengil avtomobil (37,4 % ga oshgan), o'simlik yog'i 7 411,7 tonna (52,0 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 638,2 tonna (49,9 % kamaygan) hamda 59 107,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (101,6 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	37552	46622	9070
Maxsus yengil avtomobillar, dona	8857	12168	3311
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	19728,2	20082,6	354,4
Paxta tolasi,tonna	34115,0	39488,1	5373,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	58198,9	59107,8	908,9
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	15437,9	7411,7	-8026,2


Yanvar-avgust, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 64,1 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 2 577,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,5 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 612,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 85,9 %ni, ishlab chiqarish hajmi 2 136,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 194,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 45,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 106,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,15 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 18,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,12 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 69,9 %ni va ishlab chiqarish hajmi 12,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-avgust oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,1 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 62,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 42,5 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni, fizik hajm indeksi 134,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 24,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-avgust oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,24 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 42,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %ni, fizik hajm indeksi 99,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 296,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 49,5 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,2 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,9 %ni, fizik hajm indeksi 109,5 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 394,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 337,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 58,7 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	111,5	297,5	186,0
Issqlik energiyasi, ming gkal	47,7	45,1	-2,6
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1224312,0	1234612,0	10300

Yanvar – avgust, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	3275459,0	4052736,0	777277,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	87405997,0	89034725,0	1628728
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	16170612,0	13933581,0	-2237031,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 23,7 %ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 182,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 123,8 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 64,4 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
Yanvar-avgust

39,3%

2022- yil
Yanvar-avgust

40,3%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
Yanvar-avgust

60,7

2022- yil
Yanvar-avgust




59,7%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 67,8 %ni, Urganch shahrida 14,5 %ni va Urganch tumanida 3,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (136,8 %), Gurlan tumanida (142,9 %), Yangibozor tumanida (181,8 %) hamda Urganch tumanida (128,8 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 67,8 %ni, Urganch shahrida 14,5 %ni va Urganch tumanida 3,3 %ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 81,3 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,0 %ni, Xonqa tumanida 2,0 %ni tashkil etdi.

3 521,2


mlrd so'm

2021- yil yanvar-avgust



4 286,8

mlrd so'm

2022- yil yanvar-avgust



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




Xorazm viloyati	121,7	4286,9
Urganch shahri	100,9	257,8
Xiva shahri	110,2	63,6
Bog'ot tumani	109,2	33,6
Gurlan tumani	171,8	45,7
Qo'shko'pir tumani	89,0	32,8
Urganch tumani	98,6	67,8
Hazorasp tumani	108,4	29,0
Tuproqqal'a tumani	123,9	3485,8
Xonqa tumani	110,1	87,4
Xiva tumani	88,9	29,4
Shovot tumani	128,1	45,6
Yangiariq tumani	95,9	36,5
Yangibozor tumani	370,7	71,8

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 47,8 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 27,0 %ni, Urganch tumanida 5,9 %ni tashkil etdi.



2021-yil yanvar-avgust



2022-yil yanvar-avgust



Yanvar -avgust

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 53,6 %, shuningdek, Urganch shahrida 17,5 %ni, Urganch tumanida 4,8 %ni, Shovot tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil yanvar-avgust
8 120,3 mlrd so'm

2022- yil yanvar-avgust
11 151,7 mlrd so'm



2021- yil 110,7 %

2022- yil 115,8 %

Xorazm viloyati	115,8	11 151,7
Urganch shahri	112,3	1 949,2
Xiva shahri	106,3	142,1
Bog'ot tumani	107,4	330,5
Gurlan tumani	138,7	316,0
Qo'shko'pir tumani	101,1	218,9
Urganch tumani	112,7	534,3
Hazorasp tumani	97,7	204,4
Tuproqqal'a tumani	114,2	5 972,7
Xonqa tumani	106,7	396,7
Xiva tumani	104,5	142,1
Shovot tumani	103,1	449,7
Yangiariq tumani	117,6	217,9
Yangibozor tumani	117,2	277,3

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida 105 019,8 ming so'm), Urganch shahrida (13 222,2 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 445,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Xorazm viloyati	113,9	5 777,0
Urganch shahri	110,6	13 222,2
Xiva shahri	104,4	1 487,4
Bog'ot tumani	105,5	1 943,7
Gurlan tumani	136,4	2 072,2
Qo'shko'pir tumani	99,7	1 240,4
Urganch tumani	110,4	2 589,8
Hazorasp tumani	96,6	1 025,7
Tuproqqal'a tumani	110,7	105 019,8
Xonqa tumani	104,8	2 063,6
Xiva tumani	102,9	947,2
Shovot tumani	101,5	2 572,8
Yangiariq tumani	115,8	1 827,3
Yangibozor tumani	115,3	3 091,2

o'sish sur'ati
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil yanvar-avgust

4 276,4 ming so'm

2022- yil yanvar-avgust

5 777,0 ming so'm



109,1 %


2021- yil

113,9 %



2022- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 681,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,1 %ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 720,8 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 85 595,0 ming so'mni, Urganch shahrida 7 075,1 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil yanvar-avgust

3 054,7 ming so'm

2022- yil yanvar-avgust

3 720,8 ming so'm



111,8 %

2021- yil

121,8 %

2022- yil


Xorazm viloyati	121,8	3 720,8
Urganch shahri	134,8	7 075,1
Xiva shahri	108,1	1 081,3
Bog'ot tumani	103,7	646,8
Gurlan tumani	140,5	720,0
Qo'shko'pir tumani	93,2	364,5
Urganch tumani	126,3	1 155,5
Hazorasp tumani	104,6	319,8
Tuproqqal'a tumani	119,2	85 595,0
Xonqa tumani	113,8	1 181,0
Xiva tumani	96,4	419,3
Shovot tumani	110,5	656,5
Yangiariq tumani	99,5	594,5
Yangibozor tumani	178,9	1 186,9

o'sish sur'ati



ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4 671 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 866 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 %) Urganch shahriga, 541 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 424 tasi (9,1 %) Qo'shko'pir tumaniga, 411 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga va 390 tasi (8,4 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan
faoliyat yuritayotgan